

## EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA ME`YORIY-HUQUQIY XUJJATLARNING O’RNI VA EKOLOGIK TA’LIM MUAMMOLARI

**Saribayev Bunyod Taxiovich**

*Jizzax viloyati Jizzax shahar “EKO SFERA” MCHJ direktori*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish borasida me'yoriy-huquqiy asoslarni o'rganish va tahlil etish hamda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni qonun va qonunosti hujjatlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdek ta'sir kuchi orqali yo'lga quyilishi ilmiy asosda ko'rib chiqilgan, shuningdek, maqolada ekologik madaniyatni shakllantirish uchun yurtimizda me'yoriy-huquqiy asoslar bazasini yaratishdagi huquqiy izchillik va pedagogik yondashuvga e'tibor qaratilgan.*

**Tayanch so‘zlar:** tabiat muhofazasi, ekologik muammo, ekologik madaniyat, me'yoriy-huquqiy asos, ekologik ta'lif-tarbiya.

Ijtimoiy ong doirasida shakllantiriladigan har qanday madaniyat jamiyatda o‘ziga xos yo‘nalish va mazmuni bo‘lgan me'yoriy-huquqiy asoslarga ega bo‘ladi. Aynan, shu hujjatlar asosida, turli mazmun va mohiyatni ifoda etadigan ijtimoiy madaniyat shakllanadi yoki shakllantiriladi.

Ekologik madaniyat tufayli inson o‘z hayotining maqsadi, mazmuni, mohiyati, shakli va hokazolarga yangidan yangi chiroy va bez aklar bag‘ishlaydi. Shuning uchun, ekologik madaniyatni shakllantirish borasida jamiyatda hamisha davr va zamon ruhidan, inson talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, jamiyat va tabiat munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslar qabul qilingan hamda ekologik ta'lif qo‘lga qo‘yilgan.

Ekologik madaniyat jamiyat va tabiatning o‘zaro ta’sir va aloqadorligini muvofiqlashtirishga yo‘naltirilgan inson faoliyatining ifodasi sifatida ta’riflanadi. Shuning uchun, jamiyatda ekologik madaniyat ekologiyaga oid boshqa jarayonlar va omillardan ajralmagan holatda shakllanadi va rivojlanadi. Ushbu holat, albatta, yoshlar uchun ekologik ta'lifni samarali tashkil etish, aholi o‘rtasida tabiatdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish haqidagi bilimlarni targ‘ib qilish, aholining geografik, ekologik madaniyatini oshirish orqali, betakror va go‘zal tabiatni asrashga yo‘naltirilgan sa'y-harakatlar bilan e’tiborga sazovordir.

Binobarin, tabiatni, uning boyliklarini muhofaza qilish masalalari ta'lif tizimining mazmuniga singdirilmoqda, toki yosh avlodning ekologik madaniyati bilimlar va amaliy mashg‘ulotlar orqali shakllantirilsin.

Ekologik madaniyat umuman, ekologik madaniyatning turli jihatlari ilm-fanning ilmiy tadqiqotlar jarayonida ko‘p o‘rganiladigan va hatto ko‘p o‘rganilgan ilmiy muammolar sirasiga kiradi. Bu borada, ayniqsa, “Ekologik madaniyat tarixi biosferada homo sapiens (aqlli odam) paydo bo‘lishi bilan boshlanadi. Ming yillar davomida insoniyat atrof-muhit va jamiyatdagi shaxsiy munosabatlari bilan o‘zaro munosabatda ekologik madaniyatni yuksaltirish borasida kerakli tajriba to‘plandi. Qishloq xo‘jaligi inqilobi inqirozga yuz

tutishni boshlagan atrof-muhit bilan uyg‘unlik yangicha munosabatlarni shakllanishiga olib keldi” - degan fikr e’tiborga sazovordir. Ya’ni olimning fikriga ko‘ra, ekologik madaniyat insoniyat tarixi rivojlanishining barcha bosqichlarida ham diqqat markazida bo‘lgan va tabiiyki ilmiy izlanishlar hamda ilmiy tadqiqotlar predmeti sifatida o‘rganilgan bo‘lib, ekologik ta’limning vazifalari qatoridan o‘rin olgan.

Ta’kidlash joizki, ekologik madaniyat muammolariga ko‘proq ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahliliy mulohazalar bildirilgan. Ularning umumlashtirilgan mazmuniga ko‘ra, ekologik madaniyat muammolari tabiatni tirik deb qaraydigan animizm, tabiat falsafasini dunyoqarashning eng qadimiy bilim sohasi sifatida rivojlanishi, tarbiya va ta’lim muammolari bilan ekologik axloqning o‘zaro aloqadorligi kabi masalalar o‘zaro bog‘liq holatda ilmiy tadqiqot manbaga aylanishi lozim.

Chunonchi, o‘zbek faylasuf olimi ekologik madaniyat tushunchasiga “tabiat-jamiyat-inson” tizimidagi qismlarning o‘zaro munosabatlarini muvofiqlashtiradigan, insoniyatga borliqdagi barcha mavjudotning dialektik bog‘liqligini anglatadigan, atrof-muhit musaffoligini saqlashga undaydigan va shu orqali butun koinotni tanazzuldan saqlashga xizmat qiladigan falsafiy-axloqiy kategoriyadir” - deb ta’rif beriladi.

Boshqa olimlarning fikriga ko‘ra, ekologik madaniyat – hozirgi va kelajak avlodlar uchun ekologik muammolar yechimini topish va ulkan mas’uliyat ekanligini anglash va shu asosda faoliyat yuritish muayyan davlat va jahon madaniyatining rivojlangan bosqichi hamda tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ekologik madaniyat bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda sotsiologik yondashuv asosida ilgari surilgan ekologik madaniyat haqidagi mulohazalar ham diqqatga sazovor. Ularda, asosan yoshlarda ekologik madaniyat shakllanishi masalalari yoritilgan bo‘lib, ekologik madaniyatning tarkibiy qismlari asosan sotsiologik jihatdan tahlil etilgan. Demak, ekologik madaniyat mavzusining o‘rganilganlik darajasi, ayniqsa uning ilmiy ta’rifi, mazmun-mohiyati va ijti moi yahamiyati haqida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va o‘rganish ishlarining umumiyl manzarasi, ekologik muammolar yechimiga qaratilgan jamiyat ehtiyojlarini qondirish maqsadi va vazifalari doirasida yaxshi yo‘lga quyilgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Biroq, jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirishga doir ishlab chiqilgan va ishlab chiqarilayotgan me’yoriy-huquqiy asoslarni aholining barcha qatlamiga yetkazish, ushbu hujjalarning maqsadi va vazifalarini targ‘ib qilish, hayotga tatbiq etish, ilmiy yondashuv asosida tadqiq etilishi lozim bo‘lgan muammoga aylanmoqda.

Ekologik madaniyatni shakllantirishga oid me’yoriy-huquqiy hujjalalar tahlili va targ‘ibotining nechog‘lik muhim ekanligiga e’tibor qaratib, ularning pedagogik yondashuv orqali kundalik faoliyat mazmuniga singdirish zaruratini ko‘rsatish lozim. Chunki, yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning maqsadi tabiatga mas’uliyatli, ehtiyyotkorona munosabatni tarbiyalashdan iborat. Bu maqsad esa, ta’lim oluvchilar o‘rtasida inson, jamiyat va tabiatning o‘zaro ta’siri jarayonlari va natijalarini tushunishlariga qaratilgan ilmiy bilimlar tizimi, tabiatga nisbatan ekologik qadriyat yo‘nalishlari, me’yorlari

va qoidalari, uni o’rganish va muhofaza qilish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini shakllantirish ishlarini maqsadli, tizimli tashkil etish orqali mumkin bo‘ladi.

Ma'lumki, inson butun umri davomida dunyoni biladi, o’rganadi, anglaydi. Bu jarayonda ekologik ta’limning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u barcha odamlarning hayotiy zarurati tufayli paydo bo‘ladi. Ushbu ta’limning ekologik madaniyatni shakllantirishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan uyg‘unligi esa ekologik ta’lim va tarbiyaning mushtarakligini ta’minlaydi.

Ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoniga yondashuv masalasi, barcha davru zamonlarda, albatta, umummajburiy, me’yoriy-huquqiy asoslarga tayangan holda natijadorlikka erishgan. Qadim-qadim zamonlardan ajdodlarimiz ekologik madaniyatni shakllantirishni barcha imkoniyat va usullarni qo‘llab, turli ta’sir vositalaridan foydalanib yo‘lga quyishni zarur deb hisoblashgan.

Ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni oddiy atrof-muhitni toza tutish, poki zalik targ‘iboti orqali amalgalashgan. Binobarin, O‘zbekiston Respublikasida ham, ayniqsa, mustaqillik yillarda atrof-muhitni toza saqlash va uni muhofaza qilish masalalari davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Konstitutsiyamizda tabiatni muhofaza qilishga doir qonuniy va ijtimoiy talablar o‘z ifodasini topdi. Jumladan, “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdir”, “Er, yer osti boyliklari, suv, o‘simplik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummiliy boylikdir. Ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir”, deb ko‘rsatilishi, ekologik madaniyatni shakllantirishda ijtimoiy muhit, huquqiy asos qanchalik zarur ekanligidan dalolat beradi.

O‘zbekistonda ekologik madaniyatni shakllantirish oid me’yoriy-huquqiy asoslar bazasini yaratishda izchillik, tadrijiy yondashuvni ko‘rish mumkin. Chunki, “O‘zbek xalq ekologik madaniyatini tiklash, uning rivoj lanish qonunlarini o’rganish jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy darajasi bilan bog‘liq bo‘lib, jahon miqyosida tobora ifloslanib borayotgan tabiiy muhitni asrash, biosferaning ekologik muvozanatiga ta’sir qiluvchi antropogen omillar rolini ko‘rsatish, bu jarayonda nafaqat ijtimoiy, iqtisodiy, balki siyosiy vaziyatning ham determinantlashish holatini aniqlash va amaliy yechimlarini topish, o‘z tarixiy shakllariga hamda bosqichlariga ega”

Masalan, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida” gi qonun tabiiy muhit sharoitlarini saqlashning, tabiiy resurslar dan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab beradi. Qonunning maqsadi inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar uyg‘un muvozanatda rivojlanishini, ekologiya tizimlari, tabiat komplekslari va ayrim ob’ektlar muhofaza qilinishini ta’minlashdan, fuqarolarning qulay atrof muhitga ega bo‘lish huquqini kafolatlashdan iborat ekanligi belgilangan.

“Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunning vazifalari doirasida aholi va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlari uchun suvlardan oqilona foydalanishni ta’ minlashga, suvlarni bulg‘anish, ifloslanish va kamayib ketishdan saqlashga, suvlarning zararli ta’sirining oldini olish hamda ularni bartaraf etishga, suv ob’ektlarining holatini yaxshilashga, shuningdek suvga doir munosabatlar sohasida kor xonalar, muassasalar,

tashkilotlar, fermer, dehqon xo’jaliklari hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga yo’naltirilgan.

“Er osti boyliklari to‘g‘risida” gi qonun mineral xom ashyoga bo‘lgan talablarni hamda boshqa ehtiyojlarni qondirish uchun yer qa’ridan oqilona, kompleks foydalanilishini, yer qa’ri, atrof muhit muhofaza qilinishini, yer qa’ridan foydalanilayotganda ishlarning bexatar olib borilishini ta’minlashdan, shuningdek yer qa’ridan foydalanuvchilarning huquqlarini muhofaza qilishdan, shaxs, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilishni ta’minlashga qaratilgan.

“Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida” gi qonunda e’tiborli jihat fuqarolarning atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi huquq va majburiyatlar haqidagi bobidir. Unda fuqarolar o‘z hayoti va sog‘lig‘i uchun qulay atmosfera havosidan foydalanish, atmosfera havosining holati hamda uni muhofaza qilish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida tegishli davlat organlaridan o‘z vaqtida va ishonchli axborot olish, atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlar chiqarilishi hamda unga fizikaviy omillarning zararli ta’sir ko‘rsatishi tufayli o‘z sog‘lig‘iga va mol mulkiga ziyon yetkazilgan hollarda zararning o‘rni qoplanishi, atmosfera havosini muhofaza qilish masalalari bo‘yicha jamoatchilik fikrini o‘rganishni va jamoatchilik ekologik ekspertizasini amalga oshirishda ishtirok etishi kabi huquqlari hamda atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi, atmosfera havosining ifloslanishiga, kamayishiga va unga fizikaviy omillarning zararli ta’sir ko‘rsatishiga olib keluvchi harakatlarni sodir etmasligi shart ekanligi kabi majburiyatları, aynan kishilarda ekologik madaniyatning bir muhim qismini shakllantirishga qaratilgan.

1997 yilda qabul qilingan va 2016 yil yangi tahriridagi “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunda botanika kollektiyasi, yovvoyi holda o‘suvchi o‘simliklar, yovvoyi holda o‘suvchi o‘simliklarning yashash faoli yati mahsulotlari, o‘simlik dunyosi, archa tur dagi yovvoyi o‘simliklar majmui, o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish bo‘yicha biotexnik tadbirlar kabi tushunchalarga ta’rif berilgan hamda yurtimizdagi o‘simlik dunyosi umummil liy boylik ekanligi, undan oqilona foydalanish lozimligi va u davlat tomonidan muhofaza qilinishi belgilab quyilgan.

“Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida” gi qonun yovvoyi hayvonlar, yovvoyi hayvonlarning yashash faoliyati mahsulotlari, zoologiya kollektiyasi, hayvonot dunyosi, hayvonot dunyo sini muhofaza qilish, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish bo‘yicha biotexnik tadbirlar kabi asosiy tushunchalarga ta’rif va sharhlarni belgilab, hayvonot dunyosi umummiliy boylik bo‘lib, undan oqilona foydalanish lozimligi hamda davlat tomonidan muhofaza qilinishi ko‘rsatilgan.

“O‘rmon to‘g‘risida” gi qonunga ko‘ra, o‘rmonlar asosan ekologik (tuproqni muhofaza qilish, suvni muhofaza qilish, o‘simlik va hayvonot dunyosini hamda boshqa tabiiy resurslarni muhofaza qilish, himoya, sanitariya-gigiyena, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya) va ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajaradi.

“Chiqindilar to‘g‘risida” gi qonunning asosiy vazifalari chiqindilarning fuqarolar hayoti va sog‘lig‘iga, atrof-muhitga zararli ta’sirining oldini olish, chiqindilar hosil bo‘lishini kamaytirish va ulardan xo‘jalik faoliyatida oqilona foydalanishini ta’minlashdan iborat ekanligi bilan e’tiborga molikdir.

“Davlat kadastrlari to‘g‘risida” gi qonunga muvofiq Davlat kadastro yagona tizimi mavjud bo‘lib, u davlat kadastro yuritiladigan tabiiy, xo‘jalik ob’ekti yoki boshqa ob’ekt muayyan turining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor, sifat tavsiflari va bahosi to‘g‘risidagi yangilanib turiladigan ma'lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat.

Xulosa sifatida, shuni takidlab o‘tish joizki, yuqoridagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar ya’ni, yurtimizda tabiat va uning komponentlarini muhofaza qilishga doir qabul qilingan qonunlar biri-birini to‘ldirib, mantiqiy ketma-ketlikdadir. Shu o‘rinda, yana bir mulohazani keltiramiz, agar ushbu qonunlar va ular ijrosiga yo‘naltirilgan boshqa qonunosti hujjatlarning mazmuni ta’lim tizimining barcha turlaridagi didaktik materiallariga singdirilsa, jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni yanada samarali bo‘ladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrdagi 754-XII-son “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida” Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 1193 yil 6 maydagi 837-XII-son Qonuni “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida” gi 837-XII-son
4. O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 13 dekabrdagi 444-II-son “Er osti boyliklari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartishlar va qo‘srimchalar kiritish haqidagi”gi Qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 27 dekabrdagi “Atomsfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida” gi 353-I-son Qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 21 sentyabrdagi 6 yildagi O‘RQ-409-son «O‘simgilik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi Qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 19 sentyabrdagi «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-408-son Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 16 apreldagi «O‘rmon to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ 475-son Qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 5 apreldagi “Chiqindilar to‘g‘risida” gi 362-II-son Qonuni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-son Farmoni.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-46-son farmoni.
12. Карабукаев К.Ш. Экологическая культура общества. Теория и практика, Бишкек Maxprint 2018.
13. Марап О.И. Экологическая культура в современном российском обществе: авто реферат дис. доктора социологических наук. - Москва, 2012
14. Nigmatov A.I. Ekologiya: asosiy atama va iborlarning izohli lugati. - T., 2002.
15. Ожегов Ю.Т., Никонорова Е.В. Экологический импульс. М. Молодая гвардия, 1990.
16. Yazdonov Z.Sh. O‘zbek xalq ekologik madaniyati an'analarini tiklash va rivojlantirish tendentsiyalari. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) disserta siyasi avtoreferati. Samarqand – 2019.